

## NUTQNING FONETIK, LEKSIK, GRAMMATIK BUZULISHLARINING O'ZARO TA'SIR XUSUSIYATLARI

Mamatova A.B

Nizomiy nomidagi O'zMPU Logopediya kafedrası PhD, dotsenti

Ibragimova I.N

Nizomiy nomidagi O'zMPU logopediya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutq tizimining muhim tarkibiy qismlari hisoblangan fonetik, leksik va grammatik komponentlarning buzilishi hamda ularning o'zaro bog'liqligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritgan. Nutq rivojlanishi jarayonida ushbu komponentlardan birida yuzaga kelgan nuqson boshqa komponentlarning shakllanishi va rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi natijasida nutqning umumiy tizimi buziladi. Maqolada fonetik buzilishlarning so'z boyligi, so'z ma'nosini idrok etish hamda grammatik tuzilmalarning to'g'ri shakllanishiga ta'siri misollar asosida ochib berilgan. Shuningdek, leksik va grammatik komponentlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik hamda ularning bir-birini to'ldiruvchi xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq buzilishi, fonetik komponent, leksik komponent, grammatik komponent, logopedik korreksiya, interaktiv texnologiyalar, QR-kod.

**Аннотация:** В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения рассматриваются нарушения фонетического, лексического и грамматического компонентов, являющихся важнейшими составляющими системы речи, а также их взаимосвязь. Анализируется, что дефект, возникающий в одном из указанных компонентов в процессе речевого развития, оказывает непосредственное влияние на формирование и развитие других компонентов, в результате чего нарушается целостность речевой системы. В статье на основе конкретных примеров раскрывается влияние фонетических нарушений на словарный запас, понимание значений слов и правильное формирование грамматических структур. Также освещается тесная взаимосвязь лексического и грамматического компонентов, их взаимодополняющий характер. В ходе исследования обосновывается необходимость изучения речевых нарушений не только в рамках отдельных компонентов, но и с учётом их взаимного влияния.

**Ключевые слова:** речевые нарушения, фонетический компонент, лексический компонент, грамматический компонент, логопедическая коррекция, интерактивные технологии, QR-код.

**Annotation:** This article examines, from scientific-theoretical and practical perspectives, disorders of the phonetic, lexical, and grammatical components, which are considered essential elements of the speech system, as well as their interrelationships. It analyzes how a defect arising in one of these components during speech development directly affects the formation and development of the other components, ultimately leading to disruption of the overall speech system. Based on illustrative examples, the article reveals the

*impact of phonetic disorders on vocabulary development, comprehension of word meanings, and the correct formation of grammatical structures. It also highlights the close interconnection between lexical and grammatical components and their complementary nature. The study substantiates the necessity of examining speech disorders not only within the framework of individual components but also in terms of their mutual interaction.*

**Keywords:** *speech disorders, phonetic component, lexical component, grammatical component, speech therapy correction, interactive technologies, QR code.*

Nutq va til inson faoliyatining muhim vositalaridan biri bo'lib, u nafaqat shaxsning fikrini ifodalash, balki uning ijtimoiy-madaniy muhit bilan o'zaro aloqasini ta'minlaydi. Nutq tizimi fonetik, leksik va grammatik komponentlar orqali shakllanadi va ularning uyg'unligi sog'lom rivojlangan nutqning muhim mezonini hisoblanadi.

“Nutq buzilishlari turli shakllarda namoyon bo'lib, ular fonetik-fonematik, leksik-grammatik va umumiy nutq yetishmovchiligi kabi turlarga bo'linadi, shuningdek dizartriya, alaliya kabi belgilar bilan ham ifodalanadi, bu buzilishlarning sabablari irsiy omillar, markaziy asab tizimidagi nuqsonlar hamda psixologik va ijtimoiy muhit ta'siri bilan bog'liq ekanligi tadqiq etilgan.”<sup>27</sup>

Shu sababdan, nutqning buzilishi – fonetik, leksik yoki grammatik jihatdan nuqsonlar paydo bo'lishi – individual rivojlanish, ta'lim jarayoni va jamiyat bilan integratsiya jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Logopediya fani nutqning buzilish sabablari va ularni korreksiya qilish metodlarini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nutq komponentlarining buzilishi ko'pincha bir-biriga bog'liq bo'lib, masalan, fonetik nuqsonlar leksik ifoda qobiliyatini, grammatik noto'g'ri shakllanish esa kommunikativ samaradorlikni kamaytiradi. Shuningdek, maktab va maxsus ta'lim muassasalari nutq va eshitish qobiliyatidagi nuqsonlarga ega bolalarning rivojlanishiga individual yondashuvni ta'minlashga intiladi. Ta'lim mazmunini tanlash, interaktiv texnologiyalarni qo'llash, QR-kod va multimediya resurslaridan foydalanish nutqni rivojlantirishda samarali vosita sifatida ko'rsatildi. Shu bilan birga, dastlabki tergov psixologiyasi va pedagogik amaliyotlar orqali bolalarning aqliy, ijtimoiy va kommunikativ qobiliyatlarini chuqur o'rganish imkoniyati yaratiladi.

Ta'kidlash lozimki, nutqning har bir tarkibiy qismi – fonetik, leksik va grammatik – bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, ularni o'rganish nafaqat ilmiy jihatdan, balki amaliy pedagogik va logopedik faoliyatda ham zarur. Shu nuqtai nazardan, nutq buzilishlarini aniqlash, ularni korreksiya qilish metodlarini ishlab chiqish va ta'lim tizimida integratsiyalashgan yondashuvlarni qo'llash hozirgi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi. Nutq insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotidagi asosiy kommunikativ vosita hisoblanadi. Nutq tizimi bir nechta tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular fonetik, leksik va grammatik komponentlardan tashkil topadi. “Nutq buzilishlari nafaqat individual komponentlar – fonetik, leksik va grammatik qobiliyatlar bilan bog'liq, balki ular o'zaro

<sup>27</sup> Goipova N. B. qizi & Meliboyeva Y. E. (2025). *Nutq rivojlanishining buzilishlari va ularning sabablari. Science and Education*, 6(5), 374–381.

mustahkam bog'langan bo'lib, bir qismdagi buzilish boshqalarga ham bevosita ta'sir qiladi. Shu sababdan logopedik korreksiya jarayonida har bir komponentni alohida va kompleks tarzda o'rganish zarur.”<sup>28</sup> Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nutq komponentlarining samarali ishlashi bolaning ijtimoiy muhitga integratsiyasi, ta'lim jarayonida muvaffaqiyat qozonishi va aqliy rivojlanishiga bevosita bog'liq.

Fonetik komponent nutqning tovush tizimini, talaffuz qobiliyatini va intonatsiyani o'z ichiga oladi. Bolalarda fonetik buzilishlar ko'pincha tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish, tovushlarni o'zgartirib ishlatish yoki ba'zi tovushlarni umuman aytmalik bilan namoyon bo'ladi. Masalan, metodik qo'llanmalarda keltirilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalarning “s” va “sh” tovushlarini aralashtirib talaffuz qilishi ularning leksik va grammatik ifodasini ham qiyinlashtiradi. Shu bois, fonetik korreksiya nafaqat tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga, balki so'z boyligini kengaytirishga ham yordam beradi.

Leksik komponent – nutqdagi so'z boyligi, so'zlarni to'g'ri ishlatish va ma'no uyg'unligini ta'minlaydi. Leksik buzilishlar, masalan, so'zlarni noto'g'ri ishlatish yoki yangi so'zlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklar, bolaning fikrini aniq ifodalashini cheklaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, leksik buzilishlar ko'pincha fonetik va grammatik buzilishlar bilan birga kuzatiladi. Masalan, Aliyev o'z tadqiqotida bolalarning fonetik xatolarini tuzatish jarayonida leksik boyligining ham sezilarli darajada oshganini qayd etgan. Shu bilan birga, interaktiv texnologiyalar va multimediya vositalari, xususan QR-kod orqali o'tkazilgan mashg'ulotlar, bolalarning leksik qobiliyatini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Grammatik komponent nutqning sintaksis va morfologik tarkibini, so'z birikmalari va jumalarni to'g'ri shakllantirishni o'z ichiga oladi. Grammatik buzilishlar ko'pincha so'zlarni noto'g'ri qo'llash, jumla tuzilmasini noto'g'ri shakllantirish va o'zaro bog'lanishni kamaytirish bilan namoyon bo'ladi. Bu esa bolalarning nutqini tushunishni qiyinlashtiradi va ijtimoiy muloqotda qiyinchiliklar yaratadi. Metodik qo'llanmalarda keltirilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, grammatik buzilishlar bilan ishlashda interaktiv mashqlar va individual yondashuvlar samarali natija beradi.

Nutq buzilishlari ko'pincha turli sabablarga bog'liq bo'ladi: eshitish qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, nevrologik yoki psixologik omillar, ta'lim jarayonidagi yetarli yondashuvning yo'qligi va pedagogik metodik vositalarning cheklanganligi. Bu buzilishlar bolalarning o'zini ifodalash qobiliyatini pasaytiradi, aqliy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy muhitga moslashuvini qiyinlashtiradi. Shu bois, nutqning har bir komponentini chuqur o'rganish va metodik jihatdan to'g'ri yondashuvlarni ishlab chiqish juda muhim.

Nutq buzilishlarini tuzatishda interaktiv va integratsiyalashgan metodlar samarali hisoblanadi. Jumladan:

- multimediya va QR-kod orqali mashg'ulotlarni o'tkazish;
- fonetik, leksik va grammatik mashqlarni birlashtirish;
- individual va kichik guruh mashg'ulotlari orqali bolalarni doimiy monitoring qilish.

<sup>28</sup> Karimova, L. S., & Tursunov, A. K. (2023). *Logopedik korreksiya va nutq buzilishlarini kompleks o'rganish*. Toshkent: Pedagogika va Psixologiya, 78–85-betlar.

Demak, nutq buzilishiga olib keluvchi omillarni chuqur tahlil qilganda, zamonaviy interaktiv usullardan foydalanishning ahamiyati yanada ravshan bo'ladi. Ayniqsa, o'smir yoshidagi bolalar bilan ishlash jarayonida bu usullar ularning e'tiborini samarali jalb qilishga imkon beradi. Shu tarzda, pedagog yoki logoped tomonidan ishlab chiqilgan metodik qollanmalardan foydalanish vaqti sezilarli darajada uzayadi, bu esa bolaning nutq qobiliyatini rivojlantirish jarayonini yanada samarali qiladi. Natijada, belgilangan ijobiy natijalarga erishish muddatlari ancha qisqaradi, boladagi o'zgarishlar tezroq seziladi va mustahkamlanadi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv bolalarning motivatsiyasini oshiradi, mashg'ulotlarga qiziqishini kuchaytiradi va nutqni rivojlantirish bo'yicha amaliy jarayonning sifatini yanada yuqori darajaga ko'taradi. Shu jarayonda, o'smir yoshidagi bolalar bilan ishlashda metodik qollanmadagi <sup>29</sup> turli o'yinlardan foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil etish juda samarali bo'ladi. Masalan, fonetik komponentni rivojlantirish uchun "Kim nima qiladi?" yoki "Gapni davom ettir" kabi o'yinlar bolalarning e'tiborini jalb qiladi va talaffuzni mustahkamlashga yordam beradi.

Leksik va grammatik qobiliyatni oshirish uchun esa "To'g'ri-teskarisi" , "Agar ... bo'lsa" kabi interaktiv mashqlarni qo'llash mumkin. Shu orqali bolalar mashg'ulot jarayonida faol ishtirok etadi, o'rganish jarayoni qiziqarli va motivatsion tarzda o'tadi, natijada belgilangan ijobiy natijalarga erishish muddatlari yanada qisqaradi. Bu usul bolaning nutq qobiliyatini rivojlantirishni tezlashtiradi va mashg'ulotlardan maksimal foyda olish imkonini beradi.

Nutq tizimini o'rganishda fonetik, leksik va grammatik komponentlarning o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Nutq tizimining asosiy tarkibiy qismlari – fonetik, leksik va grammatik komponentlarning buzilishi, ularning o'zaro bog'liqligi va logopedik korreksiya usullari haqida batafsil tahlil olib bordik. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nutqning har bir komponenti alohida ko'rinishda buzilgan bo'lsa-da, ular bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Masalan, tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish nafaqat fonetik qobiliyatga ta'sir qiladi, balki leksik va grammatik tuzilishni tushunish jarayonini ham qiyinlashtiradi. "Nutq buzilishlarida erta tashxis qo'yish va tizimli logopedik korreksiya jarayonlarini qo'llash, shu jumladan fonetik, leksik va grammatik komponentlarni kompleks o'rganish orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv va individual yondashuvlar nutq buzilishi bo'lgan shaxslarning kommunikativ qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi."<sup>30</sup> Shu bois, logopedik yordamni faqat bitta jihatga qaratib emas, balki butun nutq tizimi doirasida kompleks yondashuv bilan amalga oshirish zarur. Tahlillarimiz davomida shunga amin bo'ldikki, interaktiv metodlar va individual yondashuvlar nutq buzilishining turli ko'rinishlarini samarali tarzda tuzatishda juda foydali. Bolalar bilan ishlashda bu usullar ularning e'tiborini jalb qilish, nutq mashqlarini qiziqarli va motivatsion tarzda o'tkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, kattalarda ham shaxsiy xususiyatlar va muammolarni hisobga olgan holda yondashish natija beradi. Demak, har bir shaxsning nutq

<sup>29</sup> "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantiruvchi o'yinlar" 2025-y uslubiy metodik qo'llanma 12-18b

<sup>30</sup> *Speech Disorders in Preschool Children and Related Methods and Corrections in the Era of Modern Technological Development.* Journal of Applied Science and Social Science, 1(4), 115–119.

rivojlanishida individual yondashuv eng muhim element hisoblanadi. Bundan tashqari, ishlatilgan adabiyotlar va metodik qollanmalar yordamida amalga oshirilgan amaliy tadqiqotlar, misollar va tavsiyalar pedagoglar va logopedlar uchun aniq yo'riqnoma sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu nafaqat nutq buzilishi bo'lgan shaxslarning rivojlanishiga yordam beradi, balki logopedik va pedagogik amaliyotni yanada ilmiy asoslangan va tizimli qilishi mumkin. Shu tarzda, nutqning fonetik, leksik va grammatik komponentlarini chuqur tushunish va ularga kompleks yondashuvni qo'llash ta'lim jarayonida ham, kognitiv rivojlanishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, nutq buzilishi bilan kurashishda ilmiy asoslangan metodik qollanmalarni, interaktiv texnologiyalarni va individual yondashuvni birlashtirish orqali sezilarli natijalarga erishish mumkin. Bu nafaqat bolalar va kattalarning nutq qobiliyatini oshirishga, balki ularning o'zini ifoda etish va jamiyatdagi ishtirokini yaxshilashga ham yordam beradi. Shu bilan birga, mazkur ishning natijalari logopedik amaliyot va ta'lim sohasida keyingi tadqiqotlar uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantiruvchi o'yinlar" 2025-yuslubiy metodik qo'llanma
2. Ivanov, A. (2022). Nutq buzilishi va logopedik yondashuvlar. Toshkent: Fan, 45–50-betlar.
3. Goipova, N. B. & Meliboyeva, Y. E. (2025). Nutq rivojlanishining buzilishlari va ularning sabablari. Science and Education, 6(5), 374–381.
4. Karimova, L. S., & Tursunov, A. K. (2023). Logopedik korreksiya va nutq buzilishlarini kompleks o'rganish. Toshkent: Pedagogika va Psixologiya, 78–85-betlar.
5. Speech Disorders in Preschool Children and Related Methods and Corrections in the Era of Modern Technological Development. Journal of Applied Science and Social Science, 1(4), 115–119.
6. Qodirov, R. T., & Usmonova, S. M. (2024). Metodik qollanmalar asosida interaktiv nutq mashqlari. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.
7. Rasulov, F. A. (2023). Bolalarda fonetik, leksik va grammatik qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasi. Pedagogika va Psixologiya, 2(7), 65–72.